

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA – MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
Z. M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
5850200 – EKOLOGIYA TA’LIM YO‘NALISHI
4-BOSQICH TALABASI
Sultonova BaxtigulNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



MAVZU: Oltinko‘l tumani tabiiy resurslarining hozirgi ekologik xolati

Ilmiy rahbar:

b.f.n. E.YU.Ro‘zmatov

ANDIJON – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI VUJUDGA KELISH SABABLARI VA OMILLARI.....	7
1.1.O‘zbekistondagi ekologik muammo turlari.....	8
1.2. Suv resurslarini ifloslanish muammosi.....	8
1.3. Atmosfera havosining ifloslanish muammosi.....	10
1.4. Yer resurslari muammosi.....	11
1.5. Bioresurslardan foydalanish natijasida vujudga kelgan ekologik muammolar.....	13
1. 6. Ikkilamchi resurslar muammosi.....	15
1.7. Aholi sog‘lig‘i muammosi.....	16
II-BOB. ANDIJON VILOYATI OLTINKO‘L TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK TASNIFI.....	18
2.1. Andijon viloyati tabiati.....	20
2.2. Oltinko‘l tumani tabiati.....	23
III- BOB. OLTINKO‘L TUMANI TABIIY RESURSLARINING XOZIRGI EKOLOGIK XOLATI.....	27
3.1. Oltinko‘l tumanida ichimlik suv resurslarini ekologik xolati va ichimlik suvlari bilan ta’minlanganligi.....	27
3.2. Oltinko‘l tumanida axoli sogligini xozirdagi xolati.....	43
3.3. Oltinko‘l tumanida atmosfera xavosining ekologik xolati.....	45
XULOSA.....	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	52
ILOVA.....	54

KIRISH

«Ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash, ayniqsa hozirgi anomal tabiiy o'zgarishlar sharoitida mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi»

Islom Karimov

Ikkinchi ming yillikning intihosi — oxirgi o'n yilligi YUNESKO qarori bilan «Atrof-muhit sohasidagi jahon ta'limi o'n yilligi» deb e'lon qilingan edi. Uchinchi ming yillikning ibtidosi ham inson bilan atrof- muhit, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ekologik muvozanatning buzilishi, ziddiyatlarning chuqurlashuvi bilan boshlandi. Ekologik muvozanatning buzilishi alohida hududiy, milliy-mintaqaviy chegaralardan chiqib, umumbashariy muammoga aylanib qoldi.

Respublikamizning turli hududlarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarining jiddiy keskinlashuvi aholining barcha qatlamlarida, birinchi navbatda o'quvchi-yoshlarda ekologik madaniyatni, ya'ni tabiatga, atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish masalasini favqulodda o'tkirlashtirdi.

Vujudga kelayotgan ekologik noxushliklarning bosh sababchisi tabiiy jarayonlar bo'lsa - da, biroq ular antropogen omil — inson xo'jalik faoliyati, ayniqsa sanoat ishlab chiqarishi bilan chambarchas bog'langan. Masalan, Orol dengizi yoki Orolbo'yi ekologik halokatini sof tabiiy-tarixiy jarayon sifatida baholash yoki faqat suv resurslarining etishmasligiga bog'lab qo'yish o'rinli emas. Agar bu muammo iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy -madaniy omillarning dialektik birligida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hamda maishiy turmush nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, halokatga sababchi eng muhim omillardan biri aholida yetarlicha ekologik ong va madaniyat shakllanmaganligi ma'lum bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlarlar», deb yozib qo'yilgan.

Bugungi kunda respublikamiz sanoat ishlab chiqarishi yangi texnika va texnologiyalarni yaxshi biladigan, atrof-muhitni himoya qilish masalasini sanoat ishlab chiqarishi bilan bir qatarga qo'yadigan, o'z kasbiy faoliyatida tabiat resurslaridan oqilona foydalanib, ekologik muvozanat buzilishiga yo'l qo'ymaydigan, tabiatga, atrof-muhitga ehtiyotkor, g'amxo'r munosabatda bo'lib, unga nisbatan yuksak axloqiy fazilatlarni namoyon qiladigan ekologik madaniyatli malakali mutaxassislariga juda katta ehtiyoj sezmoqda. Bu zaruriyat oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida kasbiy ekologik ma'rifat (ta'lim va tarbiya) masalasini dolzarb vazifaga aylantirgan.

Zero, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham «inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi» ga, «ta’lim oluvchilarning ... ekologik va sanitariya-gigiena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish» ga alohida diqqat-e’tibor qaratilgan.

Tuproq, suv, o‘simliklar va hayvonot dunyosi keyingi yillarda barcha mamlakatlarda sanoatning rivojlanishidan juda katta aziyat chekmoqda har kuni yer yuzida 1 ta tur o‘simlik yoki 1 ta tur hayvon yo‘qolib bormoqda.

O‘zbekistonda maishiy va sanoat chiqindilari 1 mlrd 400 mln tonnadan oshib ketdi. Bu chiqindilar tuproqni, suvni, atmosferani ifloslantiruvchi manbadir. Sanoat, avtomobil va temir yo‘l transporti respublikada juda katta tezlik bilan rivojlanmoqda. Ana shularni hisobga olib mazkur ekologik qonun-qoidalarga rioya qilishga oid chora-tadbirlar va usullarni qo‘llashimiz kerak.[2]

SHu bois oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yilgan umumiy talablarda ham ekologik madaniyatga egalik — kasbiy faoliyatda ekologik mas’uliyatni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lish alohida ta’kidlangan.

Bugungi milliy mustaqilligimiz sharoitida Vatanimiz tabiatiga, atrof- muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat, mas’uliyat bilan qarash bo‘lg‘usi mutaxassislarning shaxsiy e’tiqodiga aylanmog‘i shart. Ular atrofdagi tabiiy-ijtimoiy muhitdan, axloqiy - ekologik targ‘ibotlardan tashqarida yashashi mumkin emas.

Mavzuning dolzarbligi: Andijon viloyatining maydoni respublikada eng kichik, aholisining zichligi bo‘yicha esa birinchi o‘rinda turadi. Viloyatimiz tuman, shahar va qishloqlari yil sayin chiroy ochib bormoqda. Aholining turmush darajasi ham yuksalib bormoqda. Viloyatimiz jon boshiga to‘g‘ri keladigan avtomobillar bo‘yicha ham respublikada Toshkent viloyatidan keyingi o‘rinda turadi. Bu esa o‘z navbatida transport vositalari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi.

SHunday qilib ekologik xavfli jarayonlar viloyatimizni xamda tumanlarimizni xam chetlab o‘tmaganligi, xususan, yerning cheklanganligi va tuproq unumdorligi pastligi bilan bog‘liq xavf oshib borayotganligi, shamol va suv ta’sirida yemirilish tuproq unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi, yerlarning nixoyat darajada sho‘rlanganligi, bunda tabiiy va kimyoviy omillarning tutgan o‘rni kattaligi, suv zaxiralarining taqchiligi va ifloslanganligi, xavo bo‘shlig‘ining ifloslanishi kabi xolatlarni alohida ta’kidlab, ekologik xavfsizlik, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitga salbiy ta’sirning oldini olish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish, qayta tiklash xozirgi kunning eng dolzarb muamolaridan xisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – Andijon viloyatidagi, jumladan, Oltinko‘l tumanidagi tabiiy resurslarining xozirgi ekologik xolatini o‘rganish va tegishli tavsiyalar berish

Tadqiqotning vazifalari: Bitiruv malakaviy ishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Ilmiy va internet ma'lumotlaridan atrof muxit ifloslanishi va uning salbiy okibatlari xakida ma'lumotlarni yig'ish va taxlil qilish;
- Oltinko'l tumanining tabiiy geografik tavsifini o'rganib chikish;
- Oltinko'l tumanidagi suv resurslari, xususan ichimlik suviningsh ekologik xolati va suvlarning sifatini o'rganib chikish;
- Tumanning axoli salomatligiga ekologik xolatni ta'siri va uning taxlilini qilish;
- Oltinkul tumanining atmosfera xavosini ekologik xolatini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Oltinko'l tumanidagi tabiiy resurslar

Tadqiqot predmeti: inson salomatligi, atrof-muxit muxofazasi

Tadqiqot metodlari: statistika ma'lumotlari, adabiyotlar taxlili

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Ushbu bitiruv malakaviy ishida turli davlat tashkilotlaridan olingan statistik ma'lumotlar va adabiyotlar taxlili natijasida to'plangan yig'ma ma'lumotlardan materiallardan turli soxalarda, jumladan, qishloq xo'jaligini rejalashtirishda, oliy va o'rta-maxsus ta'limda va boshqa barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Ishning xajmi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va jami 55 betdan iborat.

1-BOB. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI VUJUDGA KELISH SABABLARI VA OMILLARI

O‘zbekistonda ekologik muammolarni vujudga kelish sabablari va omillari 1960 - yillardan e‘tiboran tabiiy resurslardan ekstensiv xarakterda keng miqyosda foydalanishning kuchayishi, suv va havo havzalarining ifloslanishi, boyliklarni qashshoqlanib borishi salbiy hodisalar O‘zbekistonda ko‘plab ekologik muammolarni tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Avvaliga ekologik muammolar ayrim resurslar (komponentlar) bilan bog‘liq holda rivojlangan bo‘lsa, 80 yillar boshlab xududiy muammolarga aylana bordi. Ekologik muammolarni tarkib toptiruvchi va harakterga keltiruvchi asosiy omillar havo va suvning ifloslanishi, tuproqning degradatsiyalashuvi, o‘simliklarning mahsuldorligini keskin darajada kamayib borishi, eroziya, sho‘rlanish zol qum shakllarini vujudga keligshi va boshqalar hisoblanadi. Eng muhimi aholi, aholi orasida turli kasalliklarni tarqalishi, yosh go‘daklarning o‘lim koeffitsientini ortib borishi, umuman aholi orasida o‘lim miqdorining ortishi ekologik vaziyatning tangligini jiddiylashtiradi.

Qishloq joylarda ichimlik suvi, sanoat shaharlari va ularning atrofida atmosfera havosi hamda suv havzalarini ifloslanishi ekologik vaziyatni keskinlashuviga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Daryo suvlarining sifatini buzilishi sug‘orma yerlarda tuproqda tuz to‘planishi, kimyoviy ashyolar, og‘ir metallar, organik maxsulotlarning yig‘ilishiga olib keladi, jiddiylashadi, tuproqdagi kimyoviy ashyolar ekinlarga o‘tib, ularning mahsulotlarini zaharlaydi. CHorva mollarining sog‘ligiga putur yetkazadi. Bularning barchasi ekologik vaziyatlarni keskinlashtiradi, o‘z navbatida ma’lum yo‘nalishda soha yoki majmualar muammo tarkib topadi va shakllanish bosqichiga o‘tadi.

Ekologik muammolarni vujudga kelishi xududning tabiiy sharoiti, resurslardan foydalanish xarakteri, landshaftlarning strukturali-dinamik holati, barqarorligi, tabiiy – antropogen hodisalarning rivojlanish imkoniyatlari va ularni oldini olish tadbirlarini mavjudligi kabi jarayonlar bilan bevosita bog‘liq. Bu borada resurslardan foydalanishni boshqarish muhim amaliy ahamiyatga ega., tabiatdan foydalanishning ilmiy tamoyillari ishlab chiqarishga qanchalik to‘g‘ri tadbir etilgan bo‘lsa ekologik muvozanat shunchalik mustahkam barqaror bo‘ladi, noxush hodisalarni tarkib topish sabablarini potensial imkoniyatlari kuchli darajada jilovlangan bo‘ladi. Darvoqe, tabiatdan foydalanishni qanchalik omilkorlik bilan boshqarilsa, geosistemalarda ichki va tashqi ziddiyatlar shunchalik cheklangan hamda dinamik harakatlar yo‘nalishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ekologik muammolarni tasniflash - yuqorida ta’kidlanganidek ekologik muammolar odatda biror tabiiy resurs yoki ekosistema bilan bog‘liq bo‘ladi. Bir ba’zan ikki yoki uch turdagi resurslar bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolar ham tarkib topgan.

1.1. O'zbekistondagi ekologik muammo turlari

O'zbekistonda quyidagi ustivor ekologik muammolarni mavjudligi barchaga ma'lum: suv muammosi, atmosfera xavosi, yer, o'simlik va xayvonot dunyosi va axoli sog'ligini yomonlashuvi muammolaridir. Ekologik muammolar ma'lum ma'noda tabiatni muhofaza qilish muammolariga juda yaqin turadi, farq juda kam. Shuni hisobga olib ularni bir muammo tarkibida tadqiqot qilish maqsadga muvofiq. Quyida ekologik muammolarni tasnifi berilgan.

Xududiy ekologik muammolar ularning miqyosiga qarab turli kattalikdagi maydonlarni egallaydi. Ularning barchasi ham ustivorligi bilan ajralib turadi, lekin Orol va Orolbo'yi muammosi eng ustivor va oldingi darajadani amaliy ahamiyati bilan jahonga ma'lum. [7-8]

1.2. Suv resurslarini ifloslanish muammosi

O'zbekistonda shuningdek butun O'rta Osiyo va Qozog'istonning tekislik qismi uchun suv muammosi eng ustivorligi bilan tavsiflanadi. Suv taqchilligi ko'plab xalq xo'jaligining sohalarini rivojlantirishni cheklaydi, boz ustiga mavjud suv resurslarini ifloslanib borayotganligi muammoni yanada keskinlashishiga va tenglikni kuchayishiga ta'sir etmoqda.

Suv resurslarini ifloslanishi bilan bog'liq ekologik muammolar XX asrning 50-60 yillarida O'rta Osiyoda suv muammosi amalda hali kun tartibida bo'lmagan. 60-yillarning oxiridan bu muammo tarkib topa boshladi. 70-80 yillarda shakllanib bu jarayon hali davom etmoqda. Muammoni tarkib topishga vohalardan chiqayotgan qaytgan suvlarni 31 kub km bir qismini Amudaryo va Sirdaryo xavzalariga tashlanishi bilan bog'liq. Bu hodisa daryo suvlarining ifloslanishiga olib keladi. Kollektor – zovur suvlar (KZS) tarkibida suvda eriydigan tuzlar, mineral o'g'itlar, pestitsidlar, sanoat, kommuna – maishiy va fermalarning oqava suvlari hamda boshqa toifadagi organik biogen, kimyoviy tozalanmagan suvlarni qo'shilishi tufayli Amudaryo Termezdan, Sirdaryo Uchqo'rg'ondan boshlab ichimlik sifatida foydalanish uchun mutloqo yaroqsiz. Boz ustiga suvning minerallasuv darajasini me'yordan 2 – 5 baravar ortib kelganligi sug'orishda foydalanishni ham murakkablashtirmoqda

Darvoqe, suv resurslarini ifloslanishi nafaqat sug'orma dehqonchilik, shuningdek aholining ichimlik suv sifatida foydalanishni, daryo yoqalaridagi to'qayzorlar daltalardagi yaylov, pichanzorlar va boshqa tarmoqlarni vegetatsiya faoliyati funksiyasi, inson hayotini murakkablashtirmoqda, turli xunuk hodisalarni rivojlanishiga ta'sir etmoqda. Boshqacha aytganda suv bilan bog'liq sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishlarida qurilish, transport va aholi sog'ligi sohalarida ekologik vaziyatlarni tang ahvolga solishmoqda.

Suv muammosi murakkab ko'p qirrali, keng miqyosdir. U bir qancha kichik yoki bir aspektli muammolar majmuasidan iborat. Ularning jami bir – birlariga bilan uzviy bog'liq. Suv muammosini yechimida ularni barchasiga alohida ahamiyat berilishi va e'tiborga olinishi darkor.

Hozirgi paytda markazlashgan suv ta'minoti 257 shahar posyolka va tuman markazlarida bor. Vodoprovodlarning umumiy quvvati 6,7 mln. m³ sut, uzunligi 14,0 ming km. Aholining 84 % markazlashgan suv taxminoti bilan taxminlangan. Kishi boshiga har kuni 470 l. Suv suv sarflanadi. Kommunal vodoprovodlarning umumiy quvvati 74,4 % kommunal vodoprovod bilan taxminlangan, shundan shaharlarda 78,6% tuman markazlarida 57,7%.

SHuni aytish kerakki 110 ta shaharda, tuman markazlarida aholini suv bilan ta'minlovchi o'rtacha respublikanikidan kam 28 ta shahar bu ko'rsatkich 28% tashkil qiladi. 9 shaharda tuman markazida va shahar chetidagi posyolkalarda bir kishiga 100 l suv to'g'ri keladi.

Har yili 300 km vodoprovod ishdan chiqadi, shundan 80-100 km almashtiriladi, suvlardan foydalanish darajasi 25-35%. Bu suvlarning ko'pi daraxtlarni sug'orishga ketadi. Oxirgi paytlarda suvning sathi keskin o'zgaradi. Amudaryo Sirdaryo va Zarafshon quyi oqimlarida suv ichishga yaramaydi. Natijada 72 ta shaharda tuman markazlarida va shahar posyolkalarida sanitariya meyorlarida suvning 30% me'yorga to'g'ri kelmaydigan suv topilmoqda. Aholiga beriladigan suvning 30% me'yorga to'g'ri kelmaydi, bu suvni 1,7 mln kishi iste'mol qiladi. Sifatli ichimlik suvi bilan taxminlash muammosi Qoraqalpog'iston Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida Farg'ona, Surxondaryo, Kashkadaryo, Jizzah, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari ayrim tumanlarida muxim bo'lib qolmoqda. SHuning uchun xozir Buxoro viloyatida Zarafshon yer osti suvlari kondan, Xorazm va Qoraqalpog'istonga Tuyamo'yin suv, omboridan suv olib borish loyihasi tuzilgan.

1.3. Atmosfera havosining ifloslanish muammosi

Tirik organizm hayotida havoning musaffoligiga suvdan boshqa komponentlarni solishtirib bo'lmaydi. Havo qanchalik toza va beg'ubor bo'lsa inson hayoti ham shunchalik sog'lomligi va mustahkamligi bilan tavsiflanadi. Sanoat shaharlari va yirik aholi punktlari avtotransport qatnovining gavjumligi havoni ifloslantiradi. Ishlab chiqarish xarakterga qarab havoga ko'p turdagi chiqindilar chiqariladi. Masalan: respublika sharoitida chiqindilarning taqsimlanishi quyidagicha uglerod oksid 53% , oltingugurt angidriti 15%, azot oksidlari 4%, uglevodorodlar 8%, qattiq moddalar 5%, yuqori darajadagi zaharli o'ziga hos moddalar 15%. Keyingi vaqtlarda atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilarni miqdori 1985 yildan etiboran kamayib borish yo'nalishida bo'lsa 1996 yilda bu raqam 2,1 mln. t. gacha kamayadi. Bu jarayon ma'lum tadbirlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq. Umumiy chiqindilar majmuasida avtotransport ulushi ko'pligi bilan ajralib turadi.

Sanoat korxonalarida chiqadigan chiqindilarni tarqalishi shamol harakati tezligi va yo'nalishiga bog'liq. Tog' oldi va tog' vodiylarida chiqindilar shamol ta'sirida katta xududlarga yoyiladi. Oxongaron, Chirchiq, Surxondaryo vodiylarida bu jarayon yaxshi ifodalangan

Oxongaron vodiysida Olmaliq tog' metallurgiya kombinati, Oxongaron sement zavodi, Nurobod, Angren GRES chiqindilarining tarqalish miqyosi, ayniqsa katta xato CHotqol biosfera qo'riqxonasida ham og'ir metallar changlarini uchratish mumkin. Kombinatning faol ta'siri 20 – 25 km gacha yaxshi seziladi.

Atmosfera havosining ifloslanishi bilan "ishqorli" yog'in – sochin faoliyati, azon qatlamining yupqalashishi, o'zgarishlar kabi muammolarni tarkib topishi aniqlangan. Eng muhimi aholi sog'ligiga putur yetish jarayoni intensivlashmoqda. Turli og'ir metallar ionlari odam organizmiga, chorva mollariga havo, suv, o'simlik mahsulotlari orqali o'tib og'ir kasalliklarni vujudga keltirmoqda. Benzapiren, kadmiy, simob, qo'rg'oshin, oltingugurt, vanadiy oksidi va boshqa moddalar kishi uchun og'ir asorat qoldiradi. Binobarin, havoning chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olish uchun ma'lum chora tadbirlar majmuasi nihoyatda zarur.

1.4. yer resurslari muammosi

Insonning xo'jalik faoliyati aksariyat yerda amalga oshadi. yer dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik negizi. Uzoq tarixiy yillardan beri insonni yer bosib kelmoqda, kiyintirmoqda, sog'ligini tiklamoqda va hakazo. SHuning uchun ham yerdan turlicha foydalanish jarayonida turli muammolar tarkib topmoqda. Ularni barchasini bitta, yaxni, yer muammosi deb atash mumkin. Insonning butun sivilizatsiya mobaynida 2,5-3,0 mld ga yerni muamaladan chiqardi. (Kovda 1985). Hozir ham yiliga o'rtacha 15 mln ga yer muomaladan chiqib bormoqda. [22-23]

Er muammosi ko'p aspektli, serqirrali va barcha xududlarga taaluqlidir. yerdan oqilona foydalanish dehqonga naf beradi, yerdan noto'g'ri foydalanish uni qo'ldan ketishiga olib keladi. yerdan foydalanish jarayonida yuqorida aytib o'tilgandek tuproq eroziyasi, sho'rlanish, qashshoqlanishga mahkum etadi, bu jarayon tuproq mahsuldorligini kamayib borishiga ta'sir etadi.

O'zbekistonda sug'orma yerlar "oltin " fond hisoblanadi, chunki qishloq xo'jaligidan keladigan jami daromadning 95 % o'zlashtirilgan yerlarga to'g'ri keladi. Lekin sug'orma yerlarning (4,2 mln ga) yarmidan ko'pi (58 %) turli darajada sho'rlangan, u hozirda progressiv o'sish yo'nalishda rivojlanmoqda. Eng asosiy sabab vohalarda grunt suvlarining yetiq oqimini taxminlanmagandir. Mavjud zovur tizimlari (46,7 m ga) dalalardan gurunt suvlarini chetga o'z vaqtida chiqara olmayatpi, boz ustiga 6,5 mln ga maydonda zovur tizimlari umuman yo'q. SHuning uchun ham paxta va boshqa ekinlarning hosildorligining kamligi bilan tavsiflanadi. Sug'orma yerlarning sho'rlanish muammosi eng muhim , eng dolzarb, yechimi o'ta zarur hisoblanadi, muammoni ijobiy hal qilish uchun barcha imkoniyat, resurs, ilmiy va amaliy ishlanmalar, ilg'or tajribalar safarbar qilingan, biroq bularning samarasi ko'rinmayapti. Eng asosiysi mavjud zovur tarmoqlari va tik zovurlar ahvoli talabga to'liq javob bermayapti,

ularning o'ayqa qamish bilan to'lib yotgani, tik zovurlarning samarali ishlamasligi gurunt suvlarini kollektorlarga o'z vaqtida chiqib ketishiga to'siqlik qilmoqda. Lekin muammo yechimi hal bo'lishi lozim.

Vohalarda irrigatsiya eroziyasi va defolyatsiya hodisalari keng miqyosda rivojlangan, bularning har biri alohida muammo hisoblanadi. Respublikadagi sug'orma yerlardan 2,9 mln ga yer defolyatsiya va irrigatsiya eroziyasiga uchragan. Buning oqibatida tuproqlarning hosildorligi me'yordan ancha past, har yili paxta, g'alla va boshqa ekinlardan kam hosil olinmoqda. Bu muammo sho'rlanishdan keyingi ustuvor muammo hisoblanadi, bu ham o'z yechimini sabrsizlik bilan kutmoqda. Tog' yonbag'irlaridagi eroziya, lalmi yerlardagi tuproq yuvilishini extiborga olinsa dolzarbligi yanada ortadi.

Tekislikdagi vohalarda grunt suvlari sathini ko'tarib ketganligi ham eng dolzarb va qatta muhim ekologik muammodir. Sug'orma yerlarni zahmatkashligi yer va binolar poydevorini osti kommunikatsiyalarning axvolini og'irlashtiradi, qishloq va baxzi shaharlarni kanalizatsiya tarmoqlari bilan taxminlash darajasi xali ancha kamligi tufayli ularning sanitariya—gigienik xolatini yanada murakkablashtiradi. Quduk suvlari va boshqa ochiq xavzalar xisobiga ichimlik suvi sifatida foydalanayotgan aholi orasida turli kasalliklar tarqalishi tezlashmoqda. Bu muammo eng dolzarb va yechimi tez fursatlarda hal kilinishi shart.

1.5. Bioresurslardan foydalanish natijasida vujudga kelgan ekologik muammolar

Inson hayotida o'simlik olami beqiyos darajada muhim. O'simlik - bu kislorod, oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurilish materiallari, yem-xashak, tarovat olami, dam olish maskani, dori-darmon, qog'oz va boshqa ko'plab maxsulot yetkazib beradigan beg'ubor, inson uchun eng zarur tabiat resursi. Bioxilma-xillik olam go'zalligi, reaksiya boyligi. O'zbekiston bu borada o'simlik dunyosining boyligi (4 ming turdan ziyod) jihatdan oldingi o'rinlarni egallaydi.

O'rmonlar respublikada cho'l, tog' yon bag'irlari va daryo qayirlarida tarqalgan. Tog' mintaqasida 311 ming maydonda o'rmonlar mavjud, shundan 204 ming ga da archa, kolgani boshqa turdagi daraxtlar bilan band. Tekistlik mintaqasida saksavul va boshqa psammofitlardan iborat o'rmonzorlar 2,4 mln ga maydonda mavjud, Qayirlardagi to'qayzorlar maydoni 25 minggacha qiskargan. O'rmonlar siyrak, zich o'sgan xaqiqiy o'rmon maydonlari kam qolgan, daraxtlarning aksariyati kasal, qurigan yoki yarim qurigan. Umuman tog' yonbag'irlari, tog' oldi qiya tekisliklari, adirlar, qumli tekisliklar, voxalar o'rmon bilan qoplanish darajasi mexyorida ancha kam, shuning uchun xam turli tabiiy jarayonlarning rivojlanish

makoni juda kam keng va ular tezkorlik bilan sodir bo'lmog'da. Voxalarda ixotazorlarning maydoni 40 ming ga atrofida, bu raqam aslida loyixaga muvofiq 112 ming ga bo'lishi lozim. Irrigatsiya tarmoklari va suv omborlari qirg'oqlaridagi ixota daraxtzorlarining xozirgi ko'rsatkichi (7 ming km, kanallar yoqalarida ularning uzunligi 200 ming km bo'lishi kerak) talabga mutlaqo javob bermaydi.

CHO'l va tok yaylovlarida o'simlik koplaminig zichligi va yem — xashakbop o'tlarning mahsuldorligini me'yordan past, ko'prok mol iste'mol qilmaydigan begona o'tlarning maydoni kengayib bormog'da. SHuningdek tuproqning eroziyaga berilganligi tufayli o'tlarning egallagan maydonlari xam kiskarmog'da, texnogen omillarining erozion ta'sirining xukumdorligi ortmog'da.

O'simlik qoplami muammosi ekologik muammolar ichida nisbatan faol va tez o'zgaruvchan, boshqa omillar ta'sirida yuz beradigan muammolarni shakillanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'simliklar muammosi ko'p aspektli va serqirrali, uning tarkibida bir necha bir aspektli yoki oddiy muommolar mavjud, ularni hammasi ham bir — birlari bilan funksional bog'liq.

Hayvonot olaminig muammolari ham bisyor, o'simliklar muammosi bilan ular bevosita bog'liq. Ma'lum o'simlik turlarini yo'qolishi bilan hayvonlar ham boshqa joyga ko'chadi yoki qiriladi. Keyingi vaqtlarda brokonerlar sonining ko'payayotgani, ularni ov qurollari va texnika vositalari bilan taxminlashi hayvonlar muammosining jiddiylashtirmog'da. Tabiiy gaz, neft, suv qazib chiqarish uchun burulanayotgan joylarda karerlar vujudga kelayotgan hududlarda tehnogen omil ta'siri nihoyatda kuchli, bu joylarda xayvonlarning (ayniqsa, sudralib yuruvchilar) aksariyati qirilib ketmog'da.

O'simlik va xayvonot olami muximi ekologik omillar, ularning atrof muxit bilan bo'lgan munosabati aslida joy ekologiyasini belgilaydi. Demak, muammo ham ular bilan bog'liq, bu borada tashqi ta'sirni optiallashtirish zarur bo'ladi.

Ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash natijasida vujudga kelgan ekologik muammolar. YAngi konlarni topib, xomashyolar chiqarishni tezkorlik bilan bog'liq qator ekologik muammolar yuzaga keladi. Eng muhim muammo ma'dan konlari olinayotgan xomashyolardan majmuali foydalanish, yaxni barcha asosiy foydali elementlarni ajratib olish, aks holda ular nes — nobud bo'lishi mumkin. Konlarda maxdangacha bo'lgan qoplama jinslarni yig'ib, ma'lum joyda to'plashi (terikon) natijasida katga hudud (yaylov)larni ular band qilib yotadi. Bazan yig'ilgan tog' jinslari tarkibida zaxarli moddalarni mavjud bo'lishi ularni atrof muhitga yog'in —sochin, shamol ta'sirida

yoyilishiga olib keladi. Rudani boyitilib, kerakli elementlar olingandan so'ng qolgan shlak, klinker va boshqamoddalar yiqilib chiqindi omborxonaga (xvostoxranilehe) saqlanishga topshiriladi. Ular ham katta maydonlarni band qiladi, zararli modadlarni mavjudligi tabiiy muhitni ifloslaydi. Karerlar,otvallar, chiqindi omborxonalari va konlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa joylarning tabiiy xususiyatlari deqratsiyalashi natijasida u «buzulgan yerlar» deb nom oladi.

O'zbekistonda 90 —yillarga kadam 16,3 ming ga buzilgan yerlar bo'lgan, ularning maydoni tobora ortib bormoqda. Konlar (ayniqsa, karerlar) ulkan chang makoni, zaharli moddalar manbai bo'lganligi uchun ularda ish tutagandan so'ng tezmuddatlarda yopilib, oldini oluvchi tegishli tadbirlar amalga oshirilishi zarur, aks xolda ularning zararli oqibatlari katta miqyosda ziyonEtkazishi mumkin.

1. 6. Ikkilamchi resurslar muammosi

O'zbekistonda ishlabchiqarishni tez o'sishi va axolini sonini ortib borayotganligi ikkilamchi resurslar muammosini borgan sari jiddiylashtirmoqda, joylarda esa keskinlashtirmoqda. Bu toifadagi resurslarni kelib chiqishi jihatdan ikki katta guruhga ajratish maqsadga muvofiq: a) sanoat, transport, qurilish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va b) iison (aholi) faoliyati. Birinchi guruhdagi ikkilamchi resurslar ekologik jixatdan ancha xavfli, bu borada suyuq, gaz va qattiq xoldagi chiqindilar zaxarli bo'lishidan tashqari, radioaktivlik xususiyatiga ega. Insonning yashash faoliyati bilan bog'lik chiqindilar bu darajada xavfli bo'lmasada tibbiy jihatdan, yaxni turli kasalliklarni tarqalishi, yuqishi, genda asorat qoldiringi va boshqa xil murakkabliklar vujudga keltirishi bilan tavsiflanadi. Bizningcha, ikkilamchi resurslarni ekologik nuqtai nazaridan o'rganganda muammoning bu aspektiga urg'u berish maqsadga muvofiq.

Respublikada har kuni har bir kishi boshiga o'rtacha 0,7— 1,0 kg uy (maishiy) axlati chiqindisi to'planadi, uning tarkibi murakkab: qog'ozdan tortib to og'ir metalgacha bor. Xar yili o'rtacha 30 mln m³ chiqindi yig'iladi, uni bir qismi yoqildi, kismi ko'mildi, oz qismi kayta ishlandi. Maxalla, baland qavatli uylar, qo'rg'onlarda axlat to'planadigan joylar turli kasalliklar makoni, ayniqsa yilning issiq fasllarida ularning atrof muxitga ta'siri ko'p marta kuchayadi. Binobarin, vaziyat jiddiylashadi, ayniqsa, ularni bir necha kun qolib ketishi, vaziyatni tang xolga olib keladi.

Muammoning ijtimoiy oqibati uni joylarda tez muddatlarda ijobiy hal qilishni taqazo etadi.

1.7. Aholi sog'lig'i muammosi

Ekologik muammolar markazida axoli sog'lig'ining holati turadi, boshqacha aytganda aholi sog'lig'i ekologik muammolarning mezonidir, Aholi kamchalik sog'lom bo'lsa

ekologik vaziyat ham shunchalik inson yashashi uchun shunchalik qulaylikdan darak beradi. Bu borada bugun axoli sogʻligʻining xolati, 1 yoshgacha boʻlgan goʻdaklarning xar 1000 bolaga nisbatan nobud boʻlganlarni soni, bir yil davomidapoliklinikaga qatnaydiganlarning 1000 kishiga nisbatan mikdori, bir yil davomida kasalxonalarda davolanganlarning soni (1000 kishiga nisbatan), erkak va ayollarning oʻrtacha umr koʻrishi, eng ustivor kasalliklar va oʻlim, tabiiy oʻlim mikdori (xar 1000 kishiga nisbatan) va boshqa koʻrsatkichlar vaziyatning tanglik darajasini belgilaydi.

Axoli sogʻligʻining tadbik kilish jarayonida kasallik turlarining atrof muxit iflosligi bilan qanchalik bogʻliqligi toʻgʻrisida aniq hulosa chiqarish lozim. Xavo, ichimlik suvi, tuproq, oʻsimlik olamining zararli moddalar bilan ifloslanganligi (REM ning kattaligi) xaqida miqdoriy koʻrsatkichlar bilan asoslash maqsadga muvofiq, yoxud bikdoriy ishlamalarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Aholi sogʻligʻini tubdan yaxshilash ekologik muammolarni bosqichma — bosqich hal qilishga bogʻliq.

Hududiy majmuali ekologik muammolar. Bu toifadagi ekologik muammolar maʼlum tabiiy kompleksga tegishli boʻlib, resurslarda oqilona foydalanmaslik natijasi tarkib topadi. Bu toifadagi bir necha sabablar va omillar ishtirok etganligi tufayli muammolar majmualigi bilan ajralib turadi. Baʼzan yirik hududlarda faqat bir omil taʼsirida ushbu muammo rivojlanishi mumkin. Orol dengizi va Orolboʻyi, voxalarida grunt suvlari satxini koʻtarilib ketishi natijasidamelirotiv— gidroekologik vaziyatni yomonlashuvi, arid mintaqada choʻllashish va boshka xududiy majmuali muammolar eng dolzarb, oʻzgaruvchan, oqibati salbiy xodisalarni keng tarqalishiga olib kelayotganligi bilan tavsiflanadi.

Sifatli ichimlik suvlar bilan koʻp joylarni taxminlanmaganligi, axlatxonalarni yomonligi, kanalizatsiyani yaxshi ishlamasligi oxirgi paytlarda juda kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Oxirgi 15 yillikda axolining va yosh bolalarning sogʻligini yomonlashuvi kuzatilmoqda. Bu asosan Orol boʻyida, Xorazm va Buxoro viloyatlarida aniqlangan. Qoraqalpogʻistonda va Xorazmda 72 % aholi sogʻligi yaxshi emas.

Olmalik, Angern, Ohongaron, CHirchiq, Fargʻona, Navoiy, Qoʻqon va Samarqand shaharlarida 80 % axoli respirator kasalligi bilan ogʻrigan (nafas yoʻllarining ogʻrishi 2 marta oshgan). Sariosiyoda qon aylanish buzilgan. Pestitsidlar qoʻllaniladigan shaxarlarda kasallik 3 barobar oshib ketgan.

II-BOB. ANDIJON VILOYATI OLTINKO'L TUMANNING TABIIY GEOGRAFIK TASNIFI

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida, Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati, O'zbekistonning Namangan va Farg'ona viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyatning umumiy yer maydoni 430.3 ming gektarni tashkil etadi. Axolisining soni 2750590 nafarni tashkil etadi, jumladan viloyat markazi Andijon shahrining aholisi 375480 kishidan iborat.

Andijon viloyati asosan adir oldi tekisliklarida joylashgan. Viloyatning umumiy maydoni 430,3 ming gektar, shundan 47 foizi, ya'ni, 273.6 ming gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Viloyatning faqatgina 1 foizgina yer maydoni o'rmon bilan qoplangan, 5 foizdan ziyodroq qismi esa yaylovlardan iborat.

Andijon viloyatining g'arbiy qismi balandlik va tekisliklardan iborat, sharqiy qismi Farg'ona va Oloy tog' tizmalari yonbag'irlari bilan tutashib ketgan bo'lib, baland tog'lar Farg'ona vodiysini sovuq shamollardan to'sib turadi. SHuning uchun ham viloyatda qish faslida ham ob-havo Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga nisbatan barqaror hisoblanadi. YAnvar oyidagi o'rtacha harorat $-2-4^{\circ}\text{S}$. YOz oylarida esa harorat $+40+42$ darajaga qadar ko'tariladi.

Andijon viloyatining asosiy suv manbai Qoradaryo hisoblanib, viloyatni sharqdan g'arbg'a qarab kesib o'tadi. Undan tashqari viloyatda Katta Farg'ona, Katta Andijon, Janubiy Farg'ona kanallari ham mavjud. Daryo va kanallarning suvlari asosan dehqonchilikda ishlatiladi. Viloyat xududida uchta suv ombori va bir necha ko'llar mavjud.

Andijon viloyati tarkibiga ma'muriy jihatdan 14 ta tuman kiradi. Aholisining soni 2013 yilda 2 mln 750 mingdan ortdi. Viloyat markazi Andijon shahri dengiz sathidan 450 metr balandlikda joylashgan bo'lib, u Farg'ona vodiysidagi eng shahar hisoblanadi. SHahardan sharqda va janubda Olamushuk adirlari yastanib yotadi. Ushbu adirliklar Andijon shahrini

Qoradaryo vodiysidan ajratib turadi. Bu yerdan Fargʻona togʻ tizmalarining choʻqqilarini bemalol koʻrish mumkin.

Andijon koʻp asrlik tarixga ega. U oʻz tarixi davomida vodiyning sharqiy darvozasi sifatida xizmat qilgan. SHarqiy davlatlar bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalar, aynan Andijon orqali amalga oshirilgan hamda oʻzining ip-gazlamalari, shoxi-atlaslari va qovunlari bilan mashxur boʻlgan.

Andijon viloyati oʻzining shifobaxsh, zilol suvli buloqlari bilan maʼlum va mashxurdir. Sariq suv koʻl, Uchbuloq, Tuzloq buvi, shuningdek, Qoraboshbuloq, Olimbuloq, Qirqbuloq, Qambar ota, Imom otakabi 30 ga yaqin buloqlar bu yerdagi aholining kundalik turmushida, dehqonchiliklarida muxim ahamiyat kasb etadi. [35-36]

Viloyatning asosiy qishloq xoʻjalik ekini paxta va gʻalla hisoblanadi. SHuningdek, andijonliklar yetishtirayotgan shirin-shakar uzum, anor, anjir, xurmo, shaftoli, olxoʻri kabi mevalar hamda poliz maxsulotlari respublikamiz tashqarisida ham mashxurdir.

Andijon viloyati oʻsimliklar dunyosi boy va xilma-xildir. Daryo boʻylarida turli xil oʻsimliklar – terakning bir turi hisoblangan turongʻil, taqsimon bargli daraxtlar, chingʻil, qamish, qizilmiya, yantoq, shoʻrajriq va boshqa koʻplab oʻsimliklar oʻsadi.

Viloyat xududida Oʻzbekiston florasida uchun noyob hisoblangan Fargʻona lolasi (*Tulipa ferganica*) va kachimsimon yetmak (*Acanthophyllum gypsophylloides*) oʻsadi. Ushbu oʻsimliklar Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” ga kiritilgan.

Andijon viloyatining xayvonot olami ham rang-barangdir. Bu yerda Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” ga kiritilgan Turkiston moʻylovkori, qalqonli gekkoncha, Fargʻona qum kaltakesagi, qorabuzov, kichik oqqoʻton kabi hayvonlar uchraydi.

Andijon viloyati yer osti boyliklaridan neft, gaz, shuningdek, qurilish ashyolarining yirik zaxirasiga ega.

Andijon viloyati Oʻzbekiston Respublikasining sharqiy qismida, Qirgʻiziston Respublikasining Oʻsh viloyati, Oʻzbekistonning Namangan va Fargʻona viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyatning umumiy yer maydoni 430.3 ming gektarni tashkil etadi va territoriya jihatidan Oʻzbekiston Respublikasidagi eng kichik viloyat sanaladi.

Viloyatning umumiy yer maydoni 430.3 ming gektarni tashkil etadigan boʻlsa, shundan, 273.6 ming gektari sugʻorib dehqonchilik qilinadigan maydonlar hisoblanadi. Viloyatimizda unung gʻarbiy qismida, choʻl mintaqasiga kiruvchi xududlar yastanib yotadi. Lekin inson taʼsiri koʻrinmagan xududlar viloyatimizda deyarli yoʻq hisobi.

Andijon viloyati, asosan adir oldi tekisliklarida joylashgan turli tusdagi boʻz tuproqlarni oʻz ichiga olgan xududlardan iborat.

2.1. Andijon viloyati tabiati

Andijon viloyati yer yuzasi asosan tekisliklardan iborat. Hozirgi reliefi va yer yuzasidagi jinslar to'rtlamchi geologik davrning katta-kichik daryolari va irmoqlarining faoliyatidan hosil bo'lgan. Viloyatning g'arbiy qismi qirli tekislik (bal. 400 m), sharqi (Andijon shimoldan sharqqa Fargona va Oloy tizmalaridan iborat. Andijon viloyati geologik aktiv zonada joylashgan, kuchli zilzilalar bulib turadi. Iklimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Fargona vodiysini sovuk xavoning kirib kelishidan tusib turganligi uchun kishda Andijon viloyatida ob-xavo birmuncha barqaror. YOzi issiq, iyulning o'rtacha xarorati 27,3°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha xarorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun. Yiliga 200 - 250 mm yog'in tushadi. Andijon viloyati O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda suv resurslariga boy. Daryolari yog'indan, tog'laridag ko'p yillik qor va muzliklardan suv oladi. Asosiy daryosi - Qoradaryo. Uning irmoqlari - Maylisuv, Oqbo'yra, Aravonsoy va boshqalar. Tuproqlari bo'z, qo'ngir, o'tloqi, o'tloqi – botqoq tuproqlar, qumtosh, mergal, less va chaqirtoshlardan iborat. Bahorda adirlar efemer o'simliklar bilan qoplanadi. Andijon viloyatining ekin ekilmaydigan tekislik qismida shuvoq - sho'ra o'simliklari, tog' yon bag'irlarida pista, bodom o'sadi. YOvvoyi hayvonlar (bo'ri, tulki, qobon va b.) kam uchraydi; sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar, suv havzalarida baliqlar bor.

Andijon viloyati Farg'ona vodiysini sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimoldan Farg'ona tog' tizmalarini janubiy yon bag'rida baland tekisliklar bilan o'ralgan. Janubiy qismi O'sh tog' tizmasini CHilustun va CHilmaxram tog'lari bilan o'ralgan. G'arbdan markaziy Farg'ona cho'llari (YAzyovon, Jomashu) bilan chegaralangan.

Reliefi

Viloyatda yer usti tuzilishi tekisliklar, daryo terrasalari va adirlardan iborat bo'lib, yer usti 400 m – 1000 m balandliklardan tashkil topgan. Geologik jihatdan – yer usti to'rtlamchi davri yotqiziqlari bilan qoplangan. Bunda Andijon shahri va g'arbiy qismidagi joylar tekis terrasalardan iboratdir.

Iqlimi

Viloyatning iqlimi keskin kontinental iqlim sharoitiga ega. YOz fasli issiq, qish fasli sovuq bo'lib hisoblanadi. YOz oylarida temperatura 45 – 46 S⁰ gacha ko'tariladi. Viloyatning shimolida yillik temperaturani borishi: Xonabod yanvar oyida I – 4,6; II – 1,4; III – 6; IV – 12,9; V – 20; VI – 25,5; VII – 25; IX – 20; X – 15; XI – 12; XII – 14; absolyut minimal – 21,30 absolyut maksimum 45 S ga yetadi.

Yillik yog‘in miqdori 250 – 300 mm tushadi, g‘arbdan sharqiy qismiga qarab orta boradi. Masalan, qor qoplami Ho‘jaobodda 30 – 40 sm. CHilustun va CHilmaxram tog‘larida 60 – 70 sm ga yetadi va yer ustida uch oygacha turadi. Yil davomida havoni ochiq kunlari 260 – 290 kungacha yetadi. Bulutli kunlar kam bo‘ladi. Qish oylari dekabrda boshlanadi, yanvar, fevralni birinchi o‘n kunliklarida ayrim hollarda ikkinchi o‘n kunliklari ham qor qoplami bo‘ladi. Andijon viloyati iqlimiga ta‘sir etuvchi havo massalari xususan – Orol bo‘yi antitsiklonlar va Eron tog‘liklaridan shakllangan past bosimni tropik havo massalari ta‘sir etib turadi, bu transformatsiyaga uchragan havo oqimlaridir. Xuddi shu havo massalarini ta‘sirida qish oylarida ham temperatura ko‘tarilib ketadi va yanvarning temperaturasi 19 – 20 S bo‘lishi mumkin.

Tropik havo massalaridan keyin zudlik bilan Arktika havo massalarini kelishi bilan havo harorati temperaturasi 0S ga tushadi. Orol atrofidagi antitsiklonning ta‘siri sezilarli bo‘ladi va $t = 8 - 10$ C pasayadi yog‘in ko‘p tushadi. Viloyatda mavsumiy shamollarning ta‘siri kattadir. Tog‘vodiy shamollarini va garmisel shamolini ta‘siri bo‘ladi. Viloyatga g‘arbiy shamollarning ta‘siri kattadir. Ko‘pincha iqlim oqimlarni olib ketadi.

Tuproq‘i

Viloyatni tuproq sharoiti quyidagicha: Viloyatda bo‘z tuproqni turli xillari tiplari mavjuddir. G‘arbiy qismida SHo‘rxak, SHo‘rton tuproqlar ko‘p tarqalgan. Qumloq tuproqlar g‘arb qismida ko‘p. Tipik va och bo‘z tuproqlar markaziy qismini chekkalarida keng tarqalgan. Daryo terrasalari ustida och bo‘z tiniq bo‘z tuproqlari keng tarqalgan. Qora daryo o‘zan qismida va o‘zan atrofida botqoqli va toshli shag‘alli tuproqlar ko‘p tarqalgan. O‘zanni quyi qismida botqoqli, qumli, shag‘alli tuproqlar ko‘p tarqalgan.

Daryo terrasalari va yuqori terrasaning quyi qismida lyoss, lyossimon jinslar keng tarqalgan. Viloyatda adir, adir oraliqlari ko‘pchilik maydonni egallaydi. Bu yerlarda lyossimon jinslardan tashkil topgan hosildor tuproqlar keng tarqalgan. O‘sh – Aravon botig‘i, Adir orqa botig‘i, Xo‘jaobod, Jalalquduq botig‘ini tashkil etadi. Bu joylarda botqoqli tuproqlar ham uchraydi.

Ichki suvlari


Viloyatni gidrografiyasida tog‘ oldi Qoradaryo havzasiga kiruvchi soylarini ahamiyati kattadir. Maylisoy, Aravonsoy, SHaxrixonsoy va Andijonsoylar, bular suv ta‘minotida yetakchi o‘rinni egallaydi. Viloyat suv ta‘minotida Katta Farg‘ona kanali muhim ahamiyatga egadir. U 1945 yil umumxalq xashar yo‘li bilan 45 kun davomida qazilgan.

OLTINKO‘L TUMANI — Andijon viloyatidagi tuman. 1939 yilda tashkil etilgan. 1963 yilda Andijon tumaniga qo‘shilgan. 1978 yil qaytadan tashkil qilindi. Andijon, Asaka, SHahrixon va Baliqchi tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,21 ming km². Aholisi 133,5 ming kishi. Oltinkul tumanida 8 ta kishloq fuqarolar yig‘ini (Jalabek, Ko‘makay, Maslahat, Oltinko‘l, Oraziy, Oxunboboev, Suvyulduz, Qo‘shstepasaroy) bor. Markazi — *Oltinko‘l* qishlog‘i. Tuman markazi viloyat markazi (Andijon sh.) dan 16 km janubiy-g‘arbda joylashgan. YAqin stansiyasi — Andijon (23 km). Axolisi 6,5 ming kishi, asosan, o‘zbeklar, shuningdek, qirg‘iz, tojik, tatar, uyg‘ur va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Oltinko‘lda tuman hokimiyati binosi, umumiy ta’lim, tayanch maktablari, maktab-internat, musiqa va san’at maktabi, kasb-hunar kollejlari, markaziy kutubxona, madaniyat uyi, madaniyat va istirohat bog‘i, kasalxona, poliklinika, dorixona, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bor. [40-41]

2.2. Oltinko‘l tumani tabiati

Oltinko‘lda tuman reliefi pasttekislik, qir va adirlardan iborat. Ikdimi keskin kontinental. Iyulning o‘rtacha temperaturasi 25—28°, yanvar oyiniki — 5—7° atrofida. Ayrim hollarda yoz oylarida temperatura 42—43°, yanvar oyida esa —15, —18° sovuq bo‘lishi kuzatiladi. Vegetatsiya davri 160—180 kun. Yiliga o‘rtacha 225 mm yog‘in tushadi. Oltinko‘lda tuman janubida Katta Farg‘ona kanali, shimol



Oltinko'1 tumani tabiy – geografik xaritasi

tomonidan Qoradaryo, bulardan tashqari tuman hududidan tumanlararo Kollektor—Asaka tashlamasi, Ulug'nor kanali oqib o'tadi. Tuman adir qismining tuprog'i arzik, qolgan yerlarda

boʻz tuproq. Bahorda adirlar efemer oʻsimliklar bilan qoplanadi. Ekin ekilmaydigan yerlarda shuvoq-shoʻra oʻsadi. YOvvoyi hayvonlar kam uchraydi, sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar bor.



Oltinkoʻl sanoat kasb-hunar kolleji binosi.

A h o l i s i ning aksari qismi oʻzbeklar; rus, tojik, uygʻur, tatar va boshqa millat vakillari ham bor. 1km² ga 636 kishi toʻgʻri keladi. Aholining barchasi qishloqda yashaydi.

Xoʻjaligi. Tuman xoʻjaligi qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgan. Paxtachilik, pillachilik, chorvachilik bilan shugʻullaniladi. Sanoati asosan, yengil sanoat korxonalaridir. Paxta tolasi, chigit xom ashyosi, trikotaj matosi va mahsulotlari, mebel, ohak, gʻisht ishlab chiqariladi. «Oltin-Deri», «Etalon-Plyus», «Kezar-Tur» qoʻshma korxonalari, 992 kichik va shirkat korxonalar, 8 yoqilgʻi quyish shoxobchalari, 70 dan ortiq savdo shoxobchalari bor. Oltinkoʻlda tumanida 15 shirkat xoʻjaligi, 79 fermer xoʻjaligi, xususiy ferma, 24140 dehqon xoʻjaligi mavjud. Umumiy ekin maydoni 13961 ga, chorvachilikning asosiy tarmoklari shirkat xoʻjaliklarida joylashgan. Tuman jamoa va shaxsiy xoʻjaliklarida 21,2 ming qoramol (shu jumladan, 8,5 ming sigir), 23,3 ming qoʻy va echki, yuzga yaqin ot bor. 36 umumiy taʼlim, 15 tayanch maktablarida 35,4 ming oʻquvchi, 3 ixtisoslashgan internat-maktabda 875 oʻquvchi taʼlim oladi, shuningdek, 2 musiqa va sanʼat maktabi faoliyat koʻrsatadi. Iqtisodiyot, sanoat, maishiy xizmat kasb-hunar kollejlari 1807 oʻquvchi taʼlim olmoqda. Markaziy kutubxona, uning 22 ta tarmogʻi (19 qishloq kutubxonasi, 3 bolalar kutubxonasi, kitob fondi 363 ming asar), 7 madaniyat uyi, madaniyat va is-tirohat bogʻi ishlab turibdi. 2 kasalxona (440 oʻrin), 4

poliklinika, 28 feldsher-akusherlik, 18 qishloq vrachlik punktlari, 9 dorixona va boshqa tibbiy muassasalarida 173 vrach, 976 o'rta tibbiy xodim ishlaydi.

1979 yil 1 yanvardan «Oltinko'l» tuman gazetasi nashr qilinadi (adadi 2442).



Xoshbog'i mahalla guzari.



Xotira xiyoboni

III- BOB. OLTINKO'L TUMANI TABIIY RESURLARINING XOZIRGI EKOLOGIK XOLATI

3.1. Oltinko'l tumanida ichimlik suv resurlarini ekologik xolati va ichimlik suvlari bilan ta'minlanganligi

Oltinkul tumani geografik joylashuv buyicha garbda Balikchi tumani bilan, shimolda Andijon tumani va Balikchi tumani bilan janubda Asaka va SHaxrixon tumani bilan sharkda Andijon shaxar bilan chegaradosh Oltinkul tumaninig umumiy yer maydoni 92 km kv tashkil etib kishlok xujaligi ishlab chikarishiga iktisoslashgan. Oltinkul tumanida atmosfera xavosini ifloslovchi ob'ektlar soni 2 ta bulib Oltinkul tekistil va Andijon paxta OAJ. Tumandasuv manbalir bo'lib, ular asosan tuman kishlok xo'jaligini sug'orish ishlarida foydalaniladi va shu bilan birga suvlarni ifloslanishida asosiy tarmok xisoblanadi.

Oltinko‘l tumani axolisi jami 164500 nafardan ziyod bo‘lib, toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi 75.2 foyizini tashkil kiladi, ya‘ni axolining 123656 nafari tarmoq orqali, 40844 nafar axoli tashib ichadi.

Tumanda jami suv inshootlari soni 76 ta shundan 67 tasi maxalalarda 9 tasi tashkilotlarda karashli. SHundan 27 tasi suv ishlab chiqarish inshooti atrofi o‘ralmagan sanitariya ximoya chegarasi talblariga umuman javob bermaydi. Xozirgi kunda toza ichimlik suvi inshootlari tulik ish faoliyatida emas, ya‘ni axoliga suv berish inshootlari kuniga 2 marta ya‘ni ertalab kechki vaqti berilmoqda. [78-79]

Tumanda 8 ta Qishloq fuqarolar yig‘ini bo‘lib, 56 ta maxalla fuqarolar yig‘ini mavjud. SHundan Jalabek QFYda 6 ta mfy bo‘lib, Jalabek (3201nafari),Uyg‘ur (3920 nafar), Dalvarzin (3514 nafar), YAngi chek (3137 nafar), Qo‘sh tepa (3142 nafar), Mehnat (3945 nafar) maxalla fuqarolar yig‘ini xududlariga jami 20859 nafar axoli Andijon shaxar suv okava korxonasi tomonidan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlaydi.

Kumakay QFY da 6 ta mfy bo‘lib, Kumakay mfy axolisi 3093 nafar Xonobod suv tarmog‘idan foydalanadi. Tarmoq uzunligi 5200 metr.

Sadda MFY axolisi 2627 nafar Xonobod suv tarmog‘idan foydalanadi. Tarmoq uzunligi 3500 metr.

Ayshaxonum MFY axolisi 2885 nafar Xonobod suv tarmog‘idan foydalanadi. Tarmoq uzunligi 3500 metr.

CHuntak MFY axolisi 2530 nafar Xonobod suv tarmog‘idan foydalanadi. Tarmoq uzunligi 2500 metr.

CHek MFY da axoli soni 1115 nafar ichimlik suv inshooti mavjud. Tarmoq uzunligi 800 metr. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoot atrofi to‘liq o‘ralmagan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga javob bermaydi.

Uyshun MFY axoli soni 2700 nafardan 1500 nafari suv tarmog‘idan foydalanadi. Tarmoq uzunligi 3000 metr. Suv bashniyasi bor biroq foydalanmaydi. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoot atrofi devor bilan o‘ralgan. Ushbu xududidning aholisi o‘rtasida virusli gepatit “A” kasalligi bilan ro‘yhatga olingan bemorlar soni 8 nafarni tashkil etadi.

Maslaxat QFY da 7 ta mfy bo‘lib, Xasan-Xusan mfy axolisi 3079 nafar, shundan (2500 nafari tarmoqdan ichadi) 1079 nafari tashib ichadi. Tarmoq uzunligi 8460 metr. Suv bashniyasi bor biroq foydalanmaydi. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoot atrofi temir panjara bilan o‘ralgan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga javob beradi.

Xo‘ja MFY axolisi 2358 nafar. Tarmoq uzunligi 3500 metr. Suv bashniyasi bor yaroqsiz. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoot atrofi o‘ralmagan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga javob bermaydi.

Ittifoq MFY axolisi 1328 nafar. Ichimlik suv manbasi yo‘q. Andijon shaxar suv okava korxonasi tomonidan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlaydi.

Madaniy Mehnat MFY axolisi 4010 nafardan 3820 nafari tarmoqdan 110 nafari tashib ichadi. Tarmoq uzunligi 1800 metr. Suv bashniyasi bor foydalanmaydi. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoat atrofi devor bilan o‘ralgan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga javob beradi.

Erkin MFY axolisi 2366 nafar. Tarmoq uzunligi 7000 metr. Suv bashniyasi bor yaroqsiz. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoat atrofi temir panjara bilan o‘ralgan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga to‘liq javob bermaydi.

Maqsad MFY axolisi 2345 nafardan 1820 nafari tarmoqdan 525 nafari tashib ichadi. Tarmoq uzunligi 8000 metr. Suv bashniyasi bor yaroqli foydalanmaydi. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoat atrofi o‘ralmagan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga javob bermaydi.

Ijtimoyat MFY axolisi 2384 nafardan 1630 nafari tarmoqdan 754 nafari tashib ichadi. Tarmoq uzunligi 9500 metr. Suv bashniyasi bor yaroqli ta‘mir talab. Suv ta‘minoti chegaralangan bir kunda 2 maxal beriladi. Inshoat atrofi devor va temir panjara bilan o‘ralgan sanitariya ximoya zonasi sanitariya talblariga javob beradi.

